

## IJTIMOY PEDAGOGIKA FANINING MUSTAQILLIK DAVRIDAGI RIVOJI

**Olimjonova Lobar Nodirjon qizi**

*Oriental universiteti*

*Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annottatsiya:** *Ushbu maqolada ijtimoiy pedagogika fanining mustaqillik davridagi rivoji o'rganilgan. Pedagogika umummetodologik fan sifatida ta'lim va tarbiya nazariyasiga oid bilimlarni o'zida aks ettirish bilan birgalikda jamiyat hayotidagi ko'plab ijtimoiy muammolarni o'rganadi va tadqiq etadi.*

**Tayanch so'zlar:** *globallashuv, umummetodologik, didaktika, pedagogik mahorat, korreksion pedagogika, ta'lim menejmenti, pedagogik innovatika, neyropedagogika, ijtimoiylashuv.*

Prezident Shavkat Mirziyoyevning zamonaviy davlatchiligimizning tarixida taraqqiyparvar o'zgarishlar yaratayotgan Oliy Majlisga Murojaatnomalarida ilgari surilgan innovatsion g'oyalarni mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yoshlarni hamkorlikda milliy va zamonaviy ruhda tarbiyalab ularga innovatsion g'oyalarni singdirish bugungi kunning talabi hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda yoshlarning aqliy, ma'naviy-ma'rifiy va jismoniy kamoloti taraqqiyoti, ularning zamon talablariga mos bilim olishlari, kasbhunar egallashlari, iqtidori va qobiliyatlarini namoyon qilishi va yanada rivojlantirishi uchun yaratilgan imkoniyatlar e'tirof etilmoqda.

Ijtimoiy pedagogika O'zbekistonda ham, dunyodagi boshqa mamlakatlarda ham uzoq va chuqur an'analarga ega. Shunga qaramay sobiq sovet tuzumi davrida ijtimoiy pedagogika yutuqlari e'tiborga olinmadi. Mana shuning uchun ham ijtimoiy pedagogika yangi soha sifatida faqat ijtimoiy-pedagogik mutaxassislar davlat va jamoat organlari boshqarmalarinigina emas, balki mutaxassislar tayyorlaydigan tizimni, shuningdek ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ilmiy-tadqiqot bazasini ham o'z ichiga oladi.

**Pedagogika umummetodologik fan sifatida ta'lim va tarbiya nazariyasiga oid bilimlarni o'zida aks ettirish bilan birgalikda jamiyat hayotidagi ko'plab ijtimoiy muammolarni o'rganadi va tadqiq etadi. Hozirgi kunga kelib pedagogika fanining ko'plab yangidan-yangi fan sohalari shakllanib, rivojlanib bormoqda.**

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni tadqiq etadi.

Ijtimoiy tarbiya fuqarolik, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.<sup>94</sup>

**Quyida qator pedagogik fanlar tizimi haqidagi ma'lumotlarga to'xtalamiz.**

**Umumiy pedagogika** – pedagogikaning kontseptual masalalari va amaliy jihatlarni tadqiq etadi.

**Pedagogika nazariyasi** – pedagogikaning umumnazariy masalalari, qonuniyatlari va tamoyillari hamda tasniflashga oid masalalarni o'rganadi.

**Pedagogika tarixi** – pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi, maktab va ta'lim turlarining davriy xususiyatlari, o'ziga xoj jihatlari va ahamiyatini tadqiq etadi.

**Pedagogik mahorat** – o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash taktikasi, pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish, pedagogik madaniyat va texnikani tarkib toptirish hamda nutq texnikasini egallash yo'llarini o'rganadi.

**Maktabgacha ta'lim pedagogikasi** – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

**Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi** – boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.

**Korreksion (maxsus) pedagogika** – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

**Metodika** – xususiy fanlarni o'qitish mazmuni, qonuniyatlari, tashkiliy shart-shroitlarini tadqiq etadi.

<sup>94</sup> Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.: 2009

**Pedagogik texnologiya** – ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

**Ta'lim menejmenti** – ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarni belgilash masalalarini o'rganadi.

**Ijtimoiy pedagogika** – shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy me'yordan og'ishishning pedagogik diagnostikasi, korreksiyasi va rehabilitatsiyasi hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalarini tadqiq etadi.

**Oila pedagogikasi** – oilaviy ta'lim-tarbiya, oilada bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar asosida tarbiyalash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalalarini o'rganadi.

**Xalq pedagogikasi** – xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, milliy va bolalar o'yinlari, o'yinchoqlari kabilarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va milliy tarbiyaga doir tajribalar majmuidir.

**Qiyosiy pedagogika** – qiyosiy aspektda turli davlat, hudud, umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogika nazariyasi va amaliyotining mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rganadigan pedagogik fan sohasi.

**Pedagogik innovatika** – pedagogik innovatsiyalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadigan, shuningdek pedagogik an'analar bilan istiqboldagi ta'lim loyihalarining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydigan fan.

Pedagogik aksiologiya ta'lim oluvchi va ta'limni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiy qadriyatlarni o'rganish hamda ta'lim-tarbiyaga aksiologik yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiluvchi pedagogik bilimlar sohasidir.

**Neyropedagogika** – bu bosh miya (o'ng va chap miya yarim sharlari) faoliyati va tuzilishidagi funksional tafovutlar to'g'risidagi bilimlar hamda mazkur bilimlarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llay olish haqidagi amaliy fan sohasi.

**Muzey pedagogikasi** – pedagogika, psixologiya va muzeyshunslikning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan fan sohasi bo'lib, muzey muhitida ta'lim-tarbiya berish yo'llarini tadqiq etadi. Muzeydagi mazkur ma'rifiy yo'nalish bilan shug'yllanadigan xodim muzey pedagogi deb ataladi.

**Pedagogik antropologiya** – falsafiy, ijtimoiy, psixologik antropologiya qonuniyatlariga asoslangan holda ta'lim oluvchi uchun qulay va individual shart-sharoitlarni yaratish hamda ta'limning antropologik modeli va ta'xnologiyasini o'rganuvchi fan sohasi.

**Pedagogik akmeologiya** – barcha yosh davrlari psixologiyasi bilan bog'liqlikda jadal rivojlanayotgan shaxsning yetuk rivojlanish cho'qqisi – «akme shaxs» darajasiga yetkazish qonuniyatlari, texnika va texnologiyasini tadqiq etadi.

Ijtimoiy pedagogika predmeti san'atdan shaxsga ta'sir etadiganan g'oyaviy-emotsional vositalar kompleksidan keng foydalanish bilan farq qilib turadi.

Ijtimoiy pedagogika O'zbekistonda ham, dunyodagi boshqa mamlakatlarda ham uzoq va chuqur an'analarga ega. Shunga qaramay sobiq Ittifoq davrida ijtimoiy pedagogika yutuqtari e'tiborga olinmadi. Bunday muammolarni shaxsga, hamkorlik an'analarga, rahm-shavqatga, milliy an'analarga befarq bo'lish holatlari bilan izohlash mumkin. Bu ijtimoiy tarbiya sohasi mutaxassislari oldida turgan vazifalarni murakkablashtirib yubordi. SHuning uchun ham ijtimoiy pedagogikani rivojlantirish va mazkur yo'nalishda mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

«Ijtimoiy» tushunchasida odamlarning birga yashashi bilan bog'liq jarayonlar ifodalangan, ammo ularning muloqoti va o'zaro aloqalari turli shakllarda bo'ladi. Demak, pedagogika o'sib kelayotgan avlod tarbiyasi va ta'limi to'g'risidagi fan bo'lib, ijtimoiy pedagogika esa jamiyat a'zosini tarbiyalash va o'sha ta'lim berish to'g'risidagi fandır.<sup>95</sup>

Ijtimoiy pedagogika — fanning shunday tarkibiki, uning vositasida:

*Birinchidan*, inson hayotida ma'lum sabablar asosida yuzaga kelgan hodisalar o'rganiladi.

*Ikkinchidan*, insonning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi.

*Uchinchidan*, ta'sir etuvchi hodisalarning oldini oladi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda

<sup>95</sup> Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.: 2009

shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.

Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Ijtimoiy pedagogikaning muammolaridan yana biri bu ijtimoiylashuv va mazkur jarayonning globallashuvi hisoblanadi. Mazkur holatni tushuntirish uchun dastlab "globallashuv" hamda "ijtimoiylashuv" tushunchalarining mazmun-mohiyatini bilishimiz lozim.

**Globalashuv (globalizatsiya)** - lotincha — "globe" so'zidan olingan bo'lib, aynan uni — yerning dumaloqlashuvi, kurralashuvi deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi.

Globalashuv tushunchasi lug'aviy ma'nosi nuqtai nazaridan fransuz tilida — umumiyashuv, lotin tilida esa —globus - Yer shari ma'nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma'noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog'liq bo'lgan katta muammolarni, — sayyoraviy, - dunyoviy muammolarni, global taraqqiyot istiqbollari o'ziga qamrab oladi.

Globalashuv atamasi birinchi bor 1960 yil Giddins tomonidan foydalanilgan. Bu atama XX asrning 90-yillarigicha deyarli foydalanilmagan. 1985 yilga kelib amerikalik sotsiolog R. Robertson «globallashuv» atamasiga tushuncha bergan. Globalizatsiya atamasi birinchi bo'lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981 yildan beri qo'llanilib kelingan. Ammo bu so'zning to'liq ma'nosi, konsepsiyasi 1990 yilning yarmida amerikalik olim Charlz Taz Rassel tomonidan to'liq ochib berilgan.

Inson ongi va ruhi uchun kurashda ularga sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit lozimligi haqidagi ilk g'oyalar XI asrda O'rta Osiyoda keng tarqala boshlagan «Tasavvuf» ta'limoti namoyondalari Ibn Sino (980-1070), Najmiddin Kubro (1145-1221), Ahmad Yassaviy (XI asrning o'rtalari), Alisher Navoiy (1441-1501), Nosir Xisrav (1044-1088), Xoja Abdulholiq G'ijduvoni (1103-1179), G'azzoliy (1059-1111) asarlarida ko'zga tashlana bordi.

Ijtimoiy pedagogikaning predmeti insonning maqsadli ijtimoiylashuv jarayoni ekan, bu haqda Abu Nasr Forobiy ham fikr-mulohazalarini bildirganligining guvohi bo'ldik. Abu Nasr Forobiy «Falsafatu Aristutalis» («Arastu falsafasi») asarida qadimgi yunon olimlarining inson haqidagi fikrlarini quyidagicha sharhlagan edi: «Insonning muhim xususiyatlaridan biri — uning ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Insonning ijtimoiylashuvi sun'iy xarakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o'rtasida shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan holi bo'lsa, o'zidagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatdan halos bo'la olmaydi».

XV — XVI asrlarda O'rta Osiyoda tabiatshunos-faylasuflar, tarixchi, shoirlar va musavvirlar o'z ijodlarida ijtimoiy fanlarga alohida e'tibor bilan qarab, tabiat sirlarini o'rganishga intilganlar. Bular Abdurahmon Jomiy (1414 —1492), Jaloliddin Davoniy (1427 —1502), Alisher Navoiy (1441 —1501), Xusayn Voiz Koshifiy (1440 —1505) o'z asarlarida inson aqli tafakkuri, uning qobiliyati, insonning alohida axloqiy xislatlari, insoniylik g'oyalari bolalar tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogikaga oid fikrlarni jadidchilik harakati etakchilari, XX asr boshlarida yashab, ijod qilgan allomalar — Mahmudxo'ja Behbudiy (1874 — 1919), Munavvar qori Abdurashidov (1878 —1931), Abdulla Avloniy (1878 — 1934), Abduqodir Shakuriy (1875 —1943), H.H. Niyoziy (1839 —1929) va boshqalarning asarlaridan ham ko'plab keltirish mumkin.<sup>96</sup>

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida vujudga kelishida XX asrning 20-30 yillari alohida o'rin tutadi. Bu davrda A. Avloniy, A. SHakuriy, Munavar qori Abdurashidov, H.H. Niyoziy, Maxmudxo'ja Behbudiy kabi pedagoglarning faoliyati muhim ahamiyatga molik. Ular avvalo ijtimoiy jihatdan izdan chiqib ketayotgan bolalarga yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratganlar.

A Avloniy, nomidagi X. G. CHernishevskiy nomidagi bolalar tajriba maktablari va 601 ta muassasalar ijtimoiy pedagogikaning amaliy manbai bo'lib hisoblangan. Biroq, O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivoji amalga oshmadi. Bunda sobiq Ittifoq «sovet» pedagogikasi va o'sha davr pedagogikasi o'rtasida ajralish yuzaga keldi. Uzoq yillar mobaynida o'zbek ma'rifatparvar-pedagoglari tomonidan to'plangan barcha bilimlar inkor etildi.

1991 yilda O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat deb e'lon qilinishi bilan pedagogikaning ko'pgina sohalarini, shu jumladan ijtimoiy pedagogikani ham rivojlantirish vazifasi qo'yildi. 1997 yillarda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi bilan

<sup>96</sup> Mavlonova R.A., To'rayev O.T., Xolikberdiyev K.M. - «Pedagogika» T., «O'qituvchi» - 2008.

ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samarali yo'llarini topish, ma'naviy madaniyatni rivojlantirish, shaxsni fuqaro sifatida, erkin tafakkurli shaxs sifatida shakllantirishning eng samarali yo'llarini yaratish maqsadida pedagogika fani oldiga ta'lim tizimini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish kabi vazifalar qo'yildi. Respublikamizda ijtimoiy pedagogikaning ilmiy va amaliy sohasi endigina shakllanmoqda.

Mazkur sohada ilmiy-tadqiqot ishlari shunchalik dolzarbki, bu fan bo'yicha mamlakatimizda: «Ma'naviyat va ma'rifat markazi», «Oila» markazi, nodavlat hukumatga qarashli bo'lmagan xayriya jamg'armasi «Sog'lom avlod uchun», O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi qoshidagi g'oyaviy-siyosiy kafedralar va boshqalar, 2009 yilni «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi» yili, ya'ni har bir navbatdagi yilning ijtimoiy muammolarning biriga bag'ishlanishi va uning an'ana tusiga kirishi katta ahamiyat kasb etadi. Masalan: 2001 yil — «Onalar va bolalar» yili deb e'lon qilingandi. SHu munosabat bilan «O'smir va sog'lom turmush tarzi» deb nomlangan Respublika metodik seminari o'tkazilib, maktablarda «Sog'lom turmush tarzi» fani kiritilib, sog'lom turmush tarzini shakllantiruvchi ijtimoiy muammolar masalalari ko'rib chiqildi.

Ajdodlarimizning boy pedagogik merosini o'rganish sohasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan pedagogik tadqiqotlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish yo'nalishidagi izlanishlar;
2. Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash yo'nalishidagi tadqiqotlar;
3. Ta'limning ilmiy metodik asoslarini chuqurlashtirishga xizmat qiladigan yo'nalishlar;
4. Yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish yo'nalishidagi ishlar;
5. Ta'lim tizimi va o'quv jarayonini boshqarish, pedagogik menejment yo'nalishidagi tadqiqotlar;
6. Pedagogika tarixi yo'nalishidagi tadqiqotlar;
7. Xalq pedagogikasi sohasidagi izlanishlar;
8. Xalqaro pedagogik tajribalarni o'rganishga oid tadqiqotlar;
9. O'qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi ishlar;
10. Kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar;
11. Oila tarbiyasi to'g'risidagi tadqiqotlar;
12. Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim yo'nalishidagi izlanishlar;

13. Barkamol avlodni shakllantirishda ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyaga oid tadqiqotlar;

14. Huquqiy, iqtisodiy, ekologik hamda estetik ta'lim-tarbiyaga oid izlanishlar;

15. O'quvchi-talabalarda sog'lom turmush tarziga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar;

16. Axborot resurs markazlari faoliyatlarini yaxshilash yo'nalishidai tadqiqotlar;

17. Xususiy metodikaga oid ishlar.

Mustaqillik yillarida pedagogikaning xususiy tarmoqlari rivojlandi. Pedagogik prognostika, tashxislash, pedagogik-psixologiya, ijtimoiy-pedagogika, andropedagogika, difektologiya, inklyuziv ta'lim sohasida izlanishlar amalga oshirildi.

Shu bilan bir qatorda pedagogika fani oldida o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud:

- Mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol, huquqiy yetuk Shaxsni shakllantirish;

- Darsliklarning yangi tipologiyasini yaratish;

- Pedagogikaning xususiy tarmoqlarida amalga oshiriladigan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish;

- Yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning innovatsion tizimini yaratish;

- o'qituvchining ta'lim jarayonini loyihalash sohasidagi bilim va mahoratini oshirish;

- o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va muntazam rivojlantirish orqali, ularni kasbga yo'llashning yangicha texnologiyalarini yaratish;

- o'quvchilar bilimini baholash imkoniyatlarini kengaytirish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarni rivojlantirish.

Ijtimoiy pedagogika fanining asosiy vazifasi ijtimoiy tarbiya muammolarini o'rganish hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogika fanining amaliy vazifalarini ko'rib chiqamiz. Bunda ijtimoiy pedagog har bir bolaning yosh va o'ziga xos xususiyatlarni e'tiborga olishi talab etiladi.

1) Bola (o'smir) ongida yaxshilik va adolat tushunchasiga sobitlikni tarbiyalash, borliqni, ijodni sevishga o'rgatib, o'zaro tushunish hissini uyg'otish;

2) Inqirozli vaziyatdan mustaqil chiqib keta olish maqsadini qo'yish, odamlar bilan muloqot qilishni o'rganish va hayotda o'z maqsad va mazmunini aniqlash yo'llarini ko'rsatish;



3) Tevarak-olam, inson va uning mukammalligi, jismoniy va ma'naviy xususiyatlarini, jamiyatdagi huquq va burchlarini anglashga intilishni rivojlantirish;

4) O'z sha'ni, mustaqilligi va o'ziga ishonch kabi tuyg'ularni rivojlantirish;

Bola (o'smir) da maktab, ish, oila va tengdoshlari jamoasida, katta-kichik guruhlarda odamlar bilan muloqot o'rnatish istagi va qobiliyatini kuchaytirish. Shu o'rinda ijtimoiy pedagogdan o'z tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlariga oid yuksak bilim talab etiladi. SHuningdek, bolaga uni o'rab turgan muhit, ijtimoiy munosabatlarning ma'naviy huquqiy me'yorlariga tayanib, jamiyat, odamlar va shaxslararo ziddiyatlarni bahamjihat hal etishni o'rgatish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu kabi amaliy vazifalarni qisqacha tarzda quyidagicha ifodalash mumkin: yaxshilik qilishga o'rgatish, o'z hayotini qurishda ko'maklashish, bilimga qiziqishini orttirish, o'z individualligini rivojlantirishga imkon yaratib, qobiliyati va layoqatini takomillashtirish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.SH.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: «O'zbekiston», 2016. -56 b.

2.Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.: 2009

3.Mavlonova R. Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Istiqlol, 2009

4.Mavlonova R.A., To'rayev O.T., Xolikberdiyev K.M. - «Pedagogika» T., «O'qituvchi» - 2008.

5.Mavlonova R.A., Vohidova N. "Ijtimoiy pedagogika". T., 2009 y.